

## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QUV MASHG'ULOTLARINI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB TASHKIL ETISH

Shoyimova Shamsiya Abdirizvonovna

*Surxandaryo viloyati Oltinsoy tumani 22-maktab informatika o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada informatika darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni, ularning fikrlash qobiliyatini, hozir javoblilik darajasini o'stirish haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol uslub, zamonaviy metod, texnologiya, zamonaviy o'qitish.*

Hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi muhimdir. Ushbu masalaning hal etilishi ko'p jihatdan o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashga bog'liq.

**Interfaol** so'zi inglizcha "Interakt" so'ziga mos kelib, "Inter- o'zaro", "akt- ish ko'rmoq, ishlamoq" degan ma'nolarni anglatadi.

**Interfaol o'qitish** - muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shundag tashkil etishdan iboratki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Bugungi kunga kelib ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani o'quv mashg'ulotlarni interfaol metodlardan foydalanib tashkil etish, talaba-o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni, ularning fikrlash qobiliyatini, hozir javoblilik darajasini o'sishiga sababchi bo'lmoqda. O'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan maqsadga, kafolotli natija erishish ko'effetsenti oshadi. Ta'lim beruvchi (o'qituvchi) o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda uni olib borishda, asosan texnologik xaritani auditoriya holatidan, undagi o'quv va texnik vositalarning barqarorligidan kelib chiqib rejalashtirmog'i va tuzmog'i lozim.

Ta'limni tashkil etishda kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichlari talablariga binonan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, turli xil metodlardan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning faolligi oshadi, darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, muloqotga kirishish ko'nikmasi shakllanadi.

O'quv mashg'ulotlarni interaktiv metodlardan foydalanib tashkil etish, innovatsion ko'rgazmali ishlanmalardan foydalanish talaba-o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni, fikrlash qobiliyatlarini, hozirjavoblilik darajalarini o'sishiga imkon yaratadi. O'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotining rejalashtirilish ko'zlangan maqsadga va kafolotli natijaga erishishga

zamin yaratadi. Ta’lim berish jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyati bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo‘llaniladigan vositalar texnologik xaritada o‘z aksini topadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va mummolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi mummolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin firlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta’lim muassalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limida qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o‘quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizxojayeva N.N. “Pedagogika va pedagogik mahorat”- T.: TDPI, Nizomiy 2003 yil.
2. Avliyoqulov N. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”- T.:, 2001yil.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”- T.: O‘qituvchi 2004 yil.
4. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Qarshi, 2000 yil.
5. Saidaxmedov N.S. “Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash namunalari”- T.: PTM , 2000 yil .
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot”- T.: Fan, 2005 yil.